

Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonun imzolandi.

2026 14 August

Administratsiya **Prezident faoliyati va Konstitutsiyaviy vakolatlarini tashkiliy, huquqiy va tahliliy jihatdan ta‘minlovchi yagona konstitutsiyaviy institut** hisoblansa-da, davlat organlari bilan munosabatlarda uning faoliyatini qonun bilan tartibga solish bo‘yicha **huquqiy bo‘shliq** mavjud edi. Endilikda yangi qonun bilan **ushbu masalalar tartibga solindi.**

Prezidentning farmon, qaror, farmoyish va topshiriqlari ijrosini tashkil etishda Administratsiyaning amaldagi vakolatlari doirasidagi faoliyati qonun bilan tartibga solinishi **Prezidentlik institutining huquqiy asoslarini kuchaytiradi.** Xalqaro amaliyotda Prezident faoliyatini ta‘minlovchi institutning huquqiy maqomi qonun darajasida belgilanishi **Prezidentlik boshqaruvining institutsional standarti** hisoblanadi.

Qonun **4 ta bob** va **34 ta moddadan** iborat bo‘lib, Administratsiyaning amaldagi vakolatlari doirasida **Prezident faoliyatini ta‘minlashning konstitutsiyaviy mexanizmlari qonunda huquqiy jihatdan rasmiylashtirildi.** Xususan:

– Administratsiya O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolatlari amalga oshirilishini tashkiliy, huquqiy, tahliliy jihatdan ta‘minlaydigan davlat organi sifatida belgilandi;

– Administratsiyani Prezident shakllantiradi, Prezident belgilagan asosiy yoʻnalishlarda faoliyat yuritadi, Prezidentga boʻysunadi va hisobdor boʻladi.

Administratsiyaning **asosiy vazifalari** belgilandi:

- Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining konstitutsiyaviy vakolatlarini amalga oshirilishini tashkiliy, huquqiy va tahliliy taʼminlash;
- Prezidentning farmon, qaror va farmoyishlari loyihalarini hamda topshiriqlarini tayyorlash, ularning ijrosini tashkil etish, nazoratini olib borish hamda ularni amalga oshirishga koʻmaklashish;
- Prezidentning mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy rivojlantirishga oid yangi tashabbuslarini ishlab chiqish;
- aholi va tadbirkorlar bilan ochiq va toʻgʻridan toʻgʻri muloqotlarni tashkil etish va ularni qiynayotgan masalalarga yechimlarni ishlab chiqish;
- qonunlarni imzoga yoki qaytarishga tayyorlash;
- Prezidentning Oliy Majlisga murojaatnomasini tashkil etish;
- Prezidentga bevosita boʻysunuvchi (hisobdor) davlat organlari va tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqalar.

Shuningdek, qonunda **Administratsiya rahbarining huquqiy maqomi va vazifalari, Administratsiyaning mansabdor va boshqaruv shaxslarini lavozimga tayinlash hamda ozod etishga oid normalar** belgilangan, **Prezident huzuridagi Xavfsizlik kengashi faoliyatini tashkil etishning** qonuniy asoslari yaratilgan.

Administratsiya Prezident faoliyatini tashkil etish doirasida **parlament, Hukumat, vazirlik va idoralar, mahalliy hokimliklar, sud hokimiyati va sudyalalar hamjamiyati organlari bilan hamkorlik qiladi.**

Administratsiya **Prezidentga bevosita bo'ysunuvchi davlat organlari faoliyatini muvofiqlashtiradi, ularni takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlaydi va Prezidentga kiritadi.**

Administratsiya xodimlari uchun ularga yuklatilgan vazifalarni bajarishda ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy himoya choralari nazarda tutilmoqda.

Prezident Administratsiyasi to'g'risida Konstitutsiyaviy qonunning qabul qilinishi **Yangi O'zbekistonda inson qadrini ulug'lash, xalqimiz farovonligini yuksaltirish, davlat organlarini xalqqa xizmat qiladigan, ochiq va hisobdor tizimga aylantirish, mamlakatimizning xalqaro maydondagi nufuzini mustahkamlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlarni yangi bosqichga ko'tarishga** xizmat qiladi.

Foto: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati.